

## RANGTASVIR USTASI, AKMALJON TO'RAYEVICH IKROMJONOV.


O'zbekiston Badiiy akademiyasi  
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy  
rassomlik va dizayn instituti Tasviriy  
san'at fakulteti Dastgohli rangtasvir  
yo'nalishi 1-bosqich magistranti  
**Ibragimova Iroda**

*Every child is an artist. The difficulty is to remain an artist beyond childhood.*  
Pablo Picasso

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada siz O'zbekiston xalq rassomi Respublika rassomlik bilm yurtini (P.Benkov) tugatgan, I.Repin nomidagi rassomlik, haykaltaroshlik va me'morlik institutida ta'lim olgan hozirda Milliy rassomlik va dizayn institutida pedagog, professor Akmaljon To'rayevich Ikromjonov haqida tanishishingiz mumkin.

**Annotation:** In this article, you will learn about the People's Artist of Uzbekistan, who graduated from the Republic of Art Academy (P. Benkov), studied at the Institute of Painting, Sculpture and Architecture named after I. Repin, and is currently a pedagogue at the National Institute of Painting and Design, Professor Akmaljon Torayevich Ikromjonov you can meet.

**Kalit so'zlar:** rassom, rangtasvir, san'at, rassom asarlari, janr, va boshqalar



O'zbekiston Respublikasining xalq rassomi, O'zbekiston Badiiy Akademiyasining akademigi, O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti sovrindori, professor Akmaljon To'rayevich Ikromjonov 1952 yil 29-aprelda Toshkent shahrida tug'ilgan.

1971 yili P.P.Benkov nomidagi Respublika rassomlik bilim yurtini tamomlagan.

1977 yili Sank Piterburg shahridagi I. E. Repin nomidagi Rantasvir Xaykaltoroshlik va Memorhilik institutini tamomlagan.

Hozirda Milliy rassomlik va dizayn institutida pedagog 1990-yildan professor bo'lib ishlab kelayotgan rassomning ya'ni Akmaljon Ikromjonovning dastlabki asarlarida mahobatlilik, ulug'vorlik ko'zga tashlanadi 1980-yillarning 2-yarmidan rassom vatandoshlari qiyofasi va ruhiy dunyosini, tabiat va uning sahovatini, tarixiy shaxslar, ijtimoiy mavzularni milliy yorqin, o'ziga xos tarzda uyg'un ranglarda, umumlashma, ramziy cheksiz makonda tasvirlaydi: "Rassom Bahodir Jalolov" (1976), "Chingiz Ahmarov portreti" (1980), "Surxondaryo zamini" (1985), "Rahimbobo", "Bodomxon aya portreti" (1986), "Alisher Navoiy", "Kamoliddin Behzod" (1988), "Bobirga bagishlov" (1990), "Mirzo Ulug'bek portreti" (1994), "Mevali natyurmort", "Qumg'onli natyurmort" (1996) va b. "Moviy qo'shiq", "Bahor", "Tog'dagi soy", "Na'matak guli" (1998—2002) manzaralari Toshkentdagi Oqsaroyni bezab turibdi. "Zamin navolari" triptixi (1988), "Chaqmoq" (1989), "Orol — mening dardim" (1989—90) asarlari uchun Hamza nomidagi O'zbekiston Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan. Ikromjonov asarlari bilan respublika va chet mamlakatlar ko'rgazmalarida qatnashadi. Asarlari ayrim respublika va xorijiy muzeylarda, shaxsiy to'plamlarda saqlanadi.



**Uchrashuv (Layli va Majnun)**

**Akmal Ikromjonov**

Mato, moybo'yoq (100x70) - 2020 yil



Samarqand nonlari

Akmal Ikromjonov

Mato, moybo‘yoq (98x73) - 2020 yil

Hozirda professor Akmal Ikromjonov Milliy rassomlik va dizayn institutida dastgohli rangtasvir bo‘limida magistratura bosqichidagi talabalarga dars berib kelmoqdalar. Shogirdlarga o’zlarining qimmatli bilimlarini ularshib kelyapdilar bu insondan bilm olish juda sharaflidir.

Mening xulosam shuki rassom o’zining fikrini ommaga bildirishga uyalmasligi va bu g’oya bu asar faqat o’ziniki ekanligini namayon qilishdan tortinmasligi kerak, shundagina jamiyatda o’z o’rnini va mavqeini topish mumkin bo’ladi.

Shuning uchun asar yaratishda biz yoshlar ulug’ rassomlar tajribasini o’rganib, ulardan unumli foydalanishimiz kerak.

Foydalaniman adabiyotlar:

O’zME. Birinchi jild. Toshkent,2000